

**“HAJVI VIKTOR BOY”, “HAJVI VIKTOR” VA “VOQIAI VIKTOR”
VA “DAR SHIKOYATI LAXTIN” ASARLARINI IQTISODIYOTDA
ALOQADORLIGI**

Beknazarova Xolida Farxod qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti,

Raqamli iqtisodiyot fakulteti,

3-bosqich talabasi

[*farxodrajapov1@gmail.com*](mailto:farxodrajapov1@gmail.com)

ANNOTATSIYA: Maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning “Hajvi Viktor boy”, “Hajvi Viktor”, “Voqiai Viktor” va “Dar shikoyati Laxtin” satirasi tahlil etilgan. Shuningdek, unda o‘sha davr iqtisodiyotdagi xatoliklarni va moliyaviy savodxonlik xususida atroflicha to‘xtalangan va muhim xulosalar chiqarilgan.

Muqimiy ijodi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlardan birida shoirning “Viktor” turkumidagi satiralarda hukmron mafkura talabidan kelib chiqib noto‘g‘ri talqin qilinganligiga guvoh bo‘ldik va bu turkumdagi asarlardagi iqtisodiy muammolarni bugungi aql bilan baholashga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: *Satira, kontorast, sudxo‘rlik,*

KIRISH.

Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzusini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi. Bu Satira 1981 yilda yozilgan va haqiqiy voqealarga asoslangan. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining “Bektur” yoxud “Viktor” turkumidagi hajviy asarlari ham o‘sha davrmanzaralari tasviriga qaratilgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloqlarning vayronaligi [*realistik*](#) tasvirlangan. Shoir yaxshilikni ma‘qullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergan, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining “Bektur” yoxud “Viktor” turkumidagi hajviy asarlari ham o‘sha davr manzaralari tasviriga qaratilgan. Muqimiy ham Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Muhayyir va Qoriy singari bu mavzuda “Hajvi Bekturboy”, “Hajvi Bektur”, “Voqeayi Bektur” hajviy she‘rlarini yozgani mutaxassislariga ma‘lum. Muqimiyning “Hajvi Bektur boy” she‘ri matnini ilk marotaba N. Ostroumov Sankt-Peterburgda nashr etilib turgan, “Zapiski Vostochnogo otdeleniya imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo obshestva” to‘plamining 1894- yildagi IX tomida “Pesnya satira Viktor baya” sarlavhasi ostida ikki tilda – o‘zbekcha va ruscha tarjimada chop ettirdi. Bu firibgar Bekturboyning barcha tovlamachiliklari davr shoirlari qalamida keng yoritildi. Bu xususda adabiyotshunoslikda muayyan fikrlar bildirilgan. Jumladan, adabiyotshunos A. Olimjonov “Hajvi Bekturboy” she‘rining yozilish tarixini N.Ostroumov ma‘lumoti asosida ta‘kidlab, bunday yozadi: “Voqeayi Bektur” asarida Bektur bilan muomalada bo‘lgan, hiylagarlikda, ochko‘zlikda va xasislikda undan ham oshib tushuvchi Hodixo‘ja boy obrazini yanada to‘laroq berishga... bu salbiy tip xarakterini yaqqol gavdalantirishga harakat qilgan”

N.Ostroumov “Hajvi Viktor boy”ning izohiga ko‘ra 1891 yili Qo‘qonda bo‘lgan vaqtda bu she‘rni ashulachilar og‘Zidan yozib olganini va nashrga tayyorlaganini aytadi.

MULOHAZALAR VA NATIJALAR.

“Qissa bozi daftarga olgon ekan Viktor boy

Boylar boyi boylarga kordon ekan Viktor boy,

Ma‘lum mashhur Xo‘qandda shayton ekan Viktor boy”.

Bu satira Farg‘ona vodiysida katta shov-shuv tug‘dirgan “Viktor voqeasi” munosabati bilan yozilgan. Viktor boy bu to‘qima obraz emas ya‘ni hayotda bo‘lgan real voqea bo‘lib, Viktor Demitrovich Axmatov Qo‘qondagi aka-uka Kameskiylar savdo kontorasti ish boshqaruvchisi bo‘lib ishlaganlar. Shu davrda mahalliy boylardan anchagina arzon narxlarda Moskvadan xom-ashyo yoki

mahsulotlar olib kelishni va'da qilib, firibgarlik yo'li bilan katta miqdordagi pullarni yig'ib olishadi va dom daraksiz yo'q bo'lib ketishadi. Bu voqeaga atab Farg'ona vodiysidagi shoirlar, shu jumladan Muqimiy ham qator she'rlar yozdi.

“Bilmaslarni bildirding, sudxo'r ko'nglin tindurding,

Makru hiyla ishlatib, qo'noq qilib ko'ndurding,

Ko'p boylarni sindurding, sutxo'r ko'nglin tindurding.

Yo'q joylardin undurib, sandiq pulga to'ldirding,

Bir kurashda yiqitgan polvon ekan Viktor boy”

Satirada moliyaviy savodxonligi yetarli bo'lmagan boylarni qattiq tanqid qiladi, o'sha payti pul berib, foizini haddan oshirib qabul qiluvchilarni esa, “sudxo'r” deya davrda ommalashgan iqtisodiy muammolar haqida malumotlar beradi.

“Musulmonlar haqiga ko'zlading javru ziyon, Laxtin”

Deb boshlanuvchi “Dar shikoyati laxtin” Bu satirasi yuqoridagi “Hajvi Viktor” muhammasi, o'rtasida o'xshash misralar uchraydi. Nafaqat shakliy jihatdan balki, ma'no jihatidan ham bu satira ularning davomi bo'lib, iqtisodiy holatlar haqida ma'lumot beradi.

“Karim oxun, Qosim dallol Pir ishlab etagindin,

Hayol ayladilarinsoflig shayxi zamon Laxtin”.

Hattoki u qadar pastkashkikka botgan insonning izdoshlari ham paydo bo'lganini ham tanqiddan qochirmagan Muqimiy xalqning xol ahvolini ustalik bilan yoritgan:

“Yemay ichmayki, berdi ikki qo'llabxalq dunyosin,

Iloji bo'lsa yeb ket, bir tiyn ham berma, jon Laxtin”.

Bu yerda qo'llanilgan so'zlar o'z manosida emas balki, olib qaytarilishini hamon kutayotgan insonlarning holini va bu holat boshqalarda takrorlanasligi uchun ogohlantiruvchi ma'noda ovoz beryapdi.

XULOSA.

Muqimiy haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi haqida teranroq mulohaza yuritishga undaydi. Shu bois shoirning yangi topilgan ijod namunalari tadqiq etish zarur. Muqimiy yashagan davr vatanimiz tarixida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarga boy bo'lgan davrdir. Shu jihatdan, shoir adabiy-estetik dunyosini, muhit va jamiyatga munosabatini o'rganishda uning yangi topilgan she'rlari tahlili ilmiy qiymatga ega.

Qilay man ham emdi so'zimni tamom,

Malol ovar o'lg'ay cho'zilgan kalom!.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Абдуғафуров, Абдурашид. 1976. Муқимий сатираси. Тошкент: Фан.
2. Жумахўжа, Нусратулло. 1995. Феруз – маданият ва санъат ҳомийси. Тошкент: Фан.
3. Жўрабоев, Отабек. 1999. “Меҳрибони топмадим”. ЎзАС, 9.
4. Muqimiyning tanlanma Asarlari
5. <https://tafakkur.net/tanobchilar/muhammad-aminxoja-muqimiy.uz>
6. <https://talaba.su/muhammad-aminxo-ja-muqimiy/>
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7785415>
8. Текстология. Монографии. Научные статьи...
www.teneta.ru/rus/textology/textology.htm - 5 к.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-IV томлар. Т.: Фан, 1983, 1984, 1985. -Б. 1235.
10. Муқимий баёзи. (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Ғулом). – Т.: ЎзФА нашриёти, 1938.-Б. 60.

11. Муқимий шеърлари. “Туркистон вилоятининг газети”, 1891, 1903, 1907 йилги сонлари.
12. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017. – 4 август.
13. Мирзиёев Ш.М. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқи ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2995-сонли қарори, 2017 йил 24 май.
14. Q.Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili <https://goldenscripts.navoiy-uni.uz/index.php/goldenscripts/article/download/2/2>
15. Asarlar to‘plami [2jli], T., 1960-1961; Asarlar, T., 1974.
16. O‘zbekfilm kinostudiyasi
17. Yoqubov H., O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953;
18. Zarifov H., Muhammad Amin Muqimiy, T., 1955;
19. Karimov F., Muqimiy. Hayoti va ijodi, T., 1970;
20. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T.. 1975.
21. Karimov G‘. Muqimiy hayoti va ijodi. T., 1970.
22. Ahmedov S. O‘zbek demokratik adabiyotida she’riy hikoya. T., 2023
23. Karimov F., O‘zbek adabiyoti tarixi, 3kitob, T., 1966, 1975, 1987.